



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

TALABALAR VOLONTYORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MODEL: MAHALLIY VA XORIJIY ILMIY TAJRIBA ASOSIDA TAHLIL

Tohirov Husniddin Zokirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Volontyorlik markazi rahbari

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Tel +998978191999

alibey19911@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar volontyorlik faoliyatini tashkil etishning pedagogik jihatlarini nazariy jihatdan o'rganildi. Mahalliy me'yoriy-huquqiy baza, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va xorijiy ilmiy tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilindi, ularning har biridagi ustuvor mexanizmlar aniqlandi. Tadqiqot davomida volontyorlik faoliyatini boshqarishning to'rtta takrorlanuvchi mexanizmi - universitet va jamoa hamkorligi, o'quv jarayoni bilan bog'lash, tayyorgarlik va pedagogik kuzatuv, hamda natijani raqamli qayd etish ajratib ko'rsatildi. Tahlil natijasida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun moslashtirilgan gibrid pedagogik model taklif etildi. Maqolaning ilmiy yangiligi volontyorlik markazini tashkiliy tuzilma emas, balki pedagogik-koordinatsion subyekt sifatida qayta talqin qilishda namoyon bo'ladi. Xulosa qismida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: talabalar volontyorligi, pedagogik model, hamjamiyatga xizmat orqali o'qitish, subyekt pozitsiyasi, kasbiy kompetentlik, universitet volontyorlik markazi, e'tirof va sertifikatlash, ijtimoiy hamkorlik.

A PEDAGOGICAL MODEL FOR ORGANIZING STUDENT VOLUNTEERING: AN ANALYSIS BASED ON LOCAL AND INTERNATIONAL RESEARCH EXPERIENCE

Abstract: This article examines the pedagogical aspects of organizing student volunteering activities in higher education institutions from a theoretical perspective. A comparative analysis was conducted of the local regulatory framework, practices within the Commonwealth of Independent States (CIS), and international research, identifying the priority mechanisms within each. The study highlights four recurring mechanisms for managing volunteering activities: university-community partnerships, integration with the academic process, preparation and pedagogical supervision, and the digital recording of outcomes. Based on this analysis, a hybrid pedagogical model tailored for higher education institutions in Uzbekistan is proposed. The article's scientific novelty lies in reinterpreting the volunteer center not merely as an organizational structure, but as a pedagogical-coordinating entity. Practical recommendations are presented in the conclusion.

Keywords: student volunteering, pedagogical model, service-learning, subject position, professional competence, university volunteer center, recognition and certification, social partnership.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ СТУДЕНЧЕСКОГО ВОЛОНТЕРСТВА: АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ ОТЕЧЕСТВЕННОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация: В статье с теоретической точки зрения рассматриваются педагогические аспекты организации волонтерской деятельности студентов в высших учебных заведениях. Проведен сравнительный анализ нормативно-правовой базы, практики стран СНГ и результатов международных исследований, в ходе которого были выявлены приоритетные механизмы реализации данной деятельности. В исследовании выделены четыре ключевых механизма управления волонтерством: партнерство университета с местным сообществом, интеграция в учебный процесс, подготовка и педагогическое сопровождение, а также цифровая фиксация результатов. На основе проведенного анализа предложена гибридная педагогическая модель, адаптированная для вузов Узбекистана. Научная новизна работы заключается в переосмыслении роли волонтерского центра: он рассматривается не просто как организационная структура, а как субъект, осуществляющий педагогическую и координационную деятельность. В заключении представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: студенческое волонтерство, педагогическая модель, обучение через служение обществу (*service-learning*), субъектная позиция, профессиональная компетентность, университетский волонтерский центр, признание и сертификация, социальное партнерство.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati va oliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi davlat darajasida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi, "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish konsepsiyasi" hamda "Volontyorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror volontyorlikning huquqiy-institutsional bazasini mustahkamladi. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" va "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasi talabalar ijtimoiy faolligini oshirishni oliy ta'lim sifatining muhim mezonini sifatida belgilaydi [1,2].

Shu bilan birga, huquqiy bazaning mustahkamlanishi volontyorlikni tashkil etishning pedagogik mexanizmi avtomatik ravishda shakllanganini anglatmaydi. Mavjud tadqiqotlarda volontyorlikning foydali ta'siri isbotlangan bo'lsa-da, uning oliy

ta'lim muassasasi darajasida qanday tashkil etilishi, qaysi subyektlar tomonidan boshqarilishi va qanday natijadorlik mezonlari bilan baholanishi kerakligi masalasi ochiq qolmoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi mahalliy va xorijiy ilmiy tajriba hamda amaliy modellarni qiyosiy tahlil qilish orqali O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari sharoitiga moslashtirilgan volontyorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslangan pedagogik modelini ishlab chiqishdan iborat qilib belgilandi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi: mahalliy va xorijiy manbalar tizimli tahlil qilinishi; xorijiy tajribadagi takrorlanuvchi mexanizmlar aniqlanishi; mavjud ilmiy bo'shliq ko'rsatib berilishi; aniqlangan tendensiyalar asosida amaliy tavsiyalar shakllantirilishi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda volontyorlik faoliyati alohida tarbiyaviy tadbir sifatida emas, balki tayyorgarlik, faoliyat, pedagogik kuzatuv va e'tirofni o'z ichiga olgan yaxlit tashkiliy-pedagogik sikl sifatida ko'rib chiqildi, universitet volontyorlik markazining roli esa ijrochi tuzilmadan pedagogik-koordinatsion subyektga qarab qayta talqin qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

L.V.Vandyshevaning tadqiqotida bo'lajak ijtimoiy ish mutaxassislarining volontyorlik faoliyatiga tayyorligi kognitiv, qadriyat-motivatsion, texnologik va subyekt komponentlarini o'z ichiga oluvchi integrativ daraja sifatida talqin qilingan. O.R.Danilovanning tadqiqotida kasbiy yo'naltirilgan volontyorlik bo'lajak ijtimoiy pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish vositasi sifatida ko'rilib, faoliyatning to'rt bosqichli texnologiyasi asoslangan E.V.Bogdanovanning tadqiqotida talabalarning volontyorlik faoliyatidagi subyekt pozitsiyasi tashabbuskorlik, mustaqillik va mas'uliyat orqali tavsiflangan S.G.Ekimovanning tadqiqotida volontyorlik shaxsiy-kasbiy rivojlanish resursi sifatida, L.V.Dalning tadqiqotida esa ijtimoiy-pedagogik loyihalashtirishga tayyorlikni rivojlantirish vositasi sifatida o'rganilgan.

L.E.Sikorskayaning doktorlik tadqiqotida ko'ngillilik faoliyatining talaba yoshlar ijtimoiylashuvidagi pedagogik potentsiali tizimli asoslangan [4,5,8].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda nazariy-referatv yondashuv qo'llanildi. Metodologiyaning asosini quyidagilar tashkil etdi: mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish metodi; tashkiliy-pedagogik modellarni tizimlashtirish va umumlashtirish metodi; dissertatsion tadqiqotlar va me'yoriy hujjatlarni kontent-tahlil qilish metodi; hamda nazariy modellashtirish metodi. Tadqiqot va uning natijalarini rasmiylashtirishda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya va uning avtoreferatini rasmiylashtirish qoidalari, shuningdek ilmiy nashrlar minimumiga oid tavsiyalari asos qilib olindi.

Tadqiqot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, Rossiya va O'zbekiston oliy attestatsiya komissiyalari bazasidagi pedagogik dissertatsiyalar, xalqaro ilmiy jurnallardagi maqolalar, hamda Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya va Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy metodik hujjatlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida empirik so'rovnoma o'tkazilmadi; buning o'rniga mavjud nazariy va me'yoriy manbalar chuqur qiyosiy tahlildan o'tkazildi, bu referatv-nazariy tadqiqot uslubiga mos keladi.

Tahlil ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda mahalliy tadqiqotlar predmet va metodologik yaqinlik mezonlari bo'yicha guruhlashtirildi; ikkinchi bosqichda xorijiy tizimlardagi takrorlanuvchi mexanizmlar ajratildi va ularning O'zbekiston institutsional muhitiga transfer qilinish imkoniyati baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qiyosiy tahlil natijasida xorijiy tizimlarda to'rtta takrorlanuvchi mexanizm aniqlandi: universitet-jamoa hamkorligi; volontyorlikni o'quv jarayoni bilan bog'lash; tayyorgarlik va pedagogik kuzatuv; hamda faoliyatni raqamli qayd etish va e'tirof .

Ushbu mexanizmlar O'zbekiston sharoitida modelni takomillashtirish uchun transfer qilinadigan tayanch unsurlar sifatida baholandi.

Mahalliy amaliyot bilan solishtirish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan "Volontyorlar maktabi" tizimi va unga oid uslubiy qo'llanma allaqachon joriy etilgan, shuningdek "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasi doirasida volontyorlikni rivojlantirish rejalari mavjud. Farg'ona davlat universiteti misolida ham buni ko'rish mumkin: universitetning Volontyorlik markazi "Yashil makon" kabi loyihalarda talaba-yoshlarni faol jalb etgan, volontyorlik faoliyati esa talabaning ijtimoiy faollik indeksini baholovchi ko'rsatkichlardan biri sifatida institutsionallashtirilgan. Bu holat mahalliy infratuzilma allaqachon mavjudligini, biroq uning pedagogik funksiyasi hali to'liq tizimlashtirilmaganini tasdiqlaydi.

Tahlil davomida uchta muhim metodologik chegara aniqlandi. Birinchidan, volontyorlik hamjamiyatga xizmat orqali o'qitish bilan aynanlashtirilishi mumkin emas. Ikkinchidan, raqamli hisob tizimining o'zi pedagogik model emas, u faqat diagnostika va e'tirofni qo'llab-quvvatlovchi vosita hisoblanadi. Uchinchidan, volontyorlik markazi ham modelning o'zi emas, balki uning institutsional-koordinatsion subyekti sifatida talqin qilinishi lozim.

Shu asosda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun gibrid pedagogik model taklif etildi. Ushbu modelda mahalliy huquqiy-institutsional baza saqlangan holda, Amerika tajribasidan o'quv natijalari va mulohaza yuritish unsurlari, Yaponiya tajribasidan universitet markazining maslahat beruvchi funksiyasi, Germaniya tajribasidan tayyorlash va pedagogik kuzatuv, Janubiy Koreya tajribasidan raqamli hisob va shaxsiy yutuqlar to'plami, hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tajribasidan qabul qiluvchi tashkilotlar tarmog'i va ikki tomonlama natija diagnostikasi moslashtirildi. Motivatsion asos sifatida o'z-o'zini belgilash nazariyasi va funksional yondashuv qo'llanildi.

1-jadval

Xorijiy volontyorlik tizimlaridan O'zbekiston OTM pedagogik modeliga transfer
qilinadigan unsurlar

Mamlakat / tizim	Tayanch mexanizm	Kuchli pedagogik tomoni	O'zbekiston OTMiga moslashtirish yo'li
Amerika Qo'shma Shtatlari (hamjamiyatga xizmat orqali o'qitish)	Jamoat xizmati + o'quv maqsadi + refleksiya	Tajribani o'quv natijasiga aylantirish	Kasbiy yo'naltirilgan loyihalarda refleksiya va ta'lim natijasini belgilash
Yaponiya (universitet volontyorlik markazlari)	Markazlashgan konsultatsiya va e'tirof tizimi	Talaba-loyiha mosligi, NNT va mahalliy hokimiyat bilan hamkorlik	OTM markazining pedagogik-vositachilik funksiyasini kuchaytirish
Germaniya (federal ixtiyoriy xizmat)	Pedagogik kuzatuv va seminarlar	Tayyorlash, amaliy kuzatuv, tajribani qayta ishlash	"Volontyorlar maktabi" doirasida mentorlik va refleksiya modulini joriy etish
Janubiy Koreya (yagona raqamli portal)	Markazlashgan hisob va tizimlararo integratsiya	Faoliyatni ishonchli qayd etish va e'tirof	Raqamli "Volontyorlik pasporti" / kompetensiyaviy portfolio joriy etish
Birlashgan Millatlar Tashkiloti Volontyorlar dasturi	Tashkilotchi – qabul qiluvchi tashkilot – volontyor tarmog'i	Institutsional sheriklik, kasbiy ko'nikma rivoji	OTM – markaz – ijtimoiy hamkor – talaba tarmog'ini shakllantirish

Muhokama jarayonida ortiqcha markazlashuvning xavfi ham ko'rib chiqildi: haddan tashqari markazlashgan boshqaruv talaba tashabbusini susaytirishi, haddan tashqari erkin model esa xavfsizlik va natijadorlik nazoratining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli taklif etilayotgan modelda markaz koordinatsiya va pedagogik xizmat ko'rsatish funksiyasini kuchaytiradi, biroq talabaning tanlov erkinligini o'zlashtirib olmasligi zarur.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, talabalar volontyorligi tayyorgarlik, faoliyat, pedagogik kuzatuv va e'tirofni o'z ichiga olgan yaxlit tashkiliy-pedagogik tsikl sifatida loyihalanishi lozim. Ikkinchidan, mahalliy va xorijiy tajribani qiyoslash yagona universal modelning mavjud emasligini, moslashuvchan gibrid yondashuvning zarurligini ko'rsatadi. Uchinchidan, universitet volontyorlik markazi pedagogik-koordinatsion bog'lovchi bo'g'in sifatida qayta talqin qilinishi lozim.

Amaliy tavsiyalar quyidagicha shakllantirildi:

Birinchidan, "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun va tegishli hukumat qarorlari doirasida oliy ta'lim muassasalarida volontyorlik faoliyatini boshlashdan oldingi qisqa tayyorgarlik moduli joriy etilishi, unda etik me'yorlar va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi o'rgatilishi tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, "Oliy ta'lim tashkilotlarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom" asosida har bir volontyorlik loyihasiga mas'ul tyutor-murabbiy biriktirilishi va muntazam mulohaza yuritish uchrashuvlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, Janubiy Koreya tajribasi) asosida talabaning faoliyat turi va shakllangan kompetensiyalarini qayd etuvchi raqamli shaxsiy yutuqlar to'plami tizimi joriy etilishi, bu esa "Volontyorlar maktabi" faoliyati bilan uzviy bog'lanishi tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, volontyorlik markazi faoliyati ko'p mezonli "talaba-loyiha mosligi" tizimi asosida qayta tashkil etilishi, talaba rivoji bilan bir qatorda ijtimoiy hamkor tashkilotning olgan natijasi ham parallel baholanishi lozim.

Beshinchidan, "Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi" doirasida faol volontyorlik faoliyati talaba ijtimoiy faollik indeksining tarkibiy ko'rsatkichi sifatida hisobga olinishi, Farg'ona davlat universitetidagi amaliyot kabi boshqa oliy ta'lim muassasalarida ham tizimlashtirilishi tavsiya etiladi.

Oltinchidan, kelgusi tadqiqotlarda taklif etilgan gibrid modelning amaliy sinovdan o'tkazilishi va uning samaradorligini o'lchovchi ko'p mezonli diagnostika vositalarini ishlab chiqish istiqbolli yo'nalish sifatida belgilanishi mumkin.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-dekabrda O'RQ-585-son "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4623999> (murojaat sanasi: 02.09.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-aprelda 169-son "Volontyorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-5952104> (murojaat sanasi: 02.09.2026).
3. Qudratov A.M. O'zbekistonda volontyorlik faoliyatini rivojlantirishda yoshlar ishtirokini oshirish mexanizmlari: PhD dissertatsiyasi. URL: <https://oak.uz/pages/12007> (murojaat sanasi: 02.09.2026).
4. Данилова О.Р. Формирование профессиональной компетентности будущих социальных педагогов ... : дис. ... канд. пед. наук. – Комсомольск-на-Амуре, 2011. – 241 с.
5. Богданова Е.В. Формирование субъектной позиции студентов в волонтерской деятельности: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Кострома, 2010. – 22 с.
6. Latipova N.I. Sinfdan tashqari tadbirlarda o'smir yoshdagi o'quvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni tarbiyalash metodikasi: PhD dissertatsiyasi. URL: <https://oak.uz/pages/25783>.
7. Djamilova N.N. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari: DSc dissertatsiyasi. URL: <https://oak.uz/pages/3740>.
8. Сикорская Л.Е. Педагогический потенциал добровольческой деятельности в социализации студенческой молодежи: дис. ... д-ра пед. наук. – Москва, 2011. – 421 с.
9. Raxmanova M.Q. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish: DSc dissertatsiyasi. URL: <https://oak.uz/pages/13075>.

10. Nishonova K.Sh. Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish metodikasi: PhD dissertatsiyasi. URL: <https://oak.uz/pages/25476>.